

Tabiatshunoslik fani boyicha o'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish metodikasi

Rahmonov Abduhomid

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Tabiatshunoslik fani 3-4 sinflarda o'rganildi. Tabiatshunoslik tabiiy-ilmiy o'quv fanlari sirasiga kiradi. Mazkur fan tabiat, tabiiy boyliklardan foydalanish va asrash boyicha odamlarning mehnati haqidagi sodda bilimlar, shuningdek, o'quvchilarning amaliy o'quv faoliyati asosida ularga tabiatni chuqur anglash, o'z yurtiga muhabbat uyg'otishni shakllantirish jarayonini davom ettirishga qaratilgan.

Tabiatshunoslik 1-2 sinflarda o'qitilgan «Atrofimizdagi olam» kursining davomi hisoblanadi. O'quvchilarga amaliy o'quv faoliyati asosida ularga tabiatni chuqur anglash o'z yurtiga muhabbat uyg'otishni shakllantirish jarayonini davom ettirishga qaratilgan va ularga tushunarli ravishda tabiat va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik hamda ziddiyatli o'rgatildi.

O'quvchilar, insonlar oldiga turgan aniq ekologiya muammolarini biladilar. Bunday muammolarga jonsiz tabiatni va tuproqni ifloslanishdan, yemirilish va kuchsizlanishdan saqlash; turli tirik mavjudotlar va ularning vakillarini saqlash; insonlar sog'ligini saqlashda tabiatni asrash kiradi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab tabiatshunoslikni o'qitish bolalarda butun yer yuzi tabiatini asrab-avaylash hissini shakllantiradi. O'quvchilar tabiatni asrash yuzasidan olib borayotgan amaliy ishlar yuzasidan alohida ko'nikmaga ega bo'ladilar. O'quvchilarga o'lkamizning tabiat hodisalari va undagi qismlar haqida boshlang'ich bilimlar berish; sodda misollar bilan tabiat, shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'rsatish; tabiatdan foydalanish uni asrash boyicha inson faoliyati bilan tanishtirish; tabiatni asrash uchun zarar bo'lgan amaliy ko'nikmalar hosil qilish va shu asosida tabiatga nisbatan maqbul dunyoqarashini shakllantirish; o'quvchilarni ekologik, estetik, mehnat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tabiatshunoslik kursini o'qitishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

4-sinf «Tabiatshunoslik» fanini o'rgatish jarayonida o'qituvchi quyidagi vazifalarga e'tibor berishlarini tavsiya etaman:

1. Xaritalarning xilma-xilligi; Bunda yarimsharlar xaritasi, g'arbiy yarimsharlar, sharqiy yarimsharlar, tabiiy xarita, ma'muriy xaritalar kiradi;
2. Yil fasllarining almashinishi; Bir yil-365 kunu 6 soatga teng. Yer sharining Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqishi uchun ketadigan vaqt yil deb ataladi.

Yer sharining Quyosh atrofida bir tomonga o'g'gan holatda aylanishidan yil fasllari hosil bo'ladi.

3. Ufq va uning asosiy tomonlari: Ochiq va tekis joyda Yer yuzining aylana chiziq bilan chegaralashgan chizig'i ufq deb ataladi. Ufqning 4 ta asosiy tomonlari borligi. Ular shimol, janub, g'arb va sharq tomonlarga bo'linishi.
4. Yer osti boyliklari haqida savollar:
 - 1)Tog' jinslariga nimalar kiradi?
Javobi: Qum, tosh, shag'al, ohaktosh, granit
 - 2)Minerallarga nimalar kiradi?
Javobi: Oltin, miss, olmos, temir, kvars, oltingugurt, ko'mir, neft, gaz.
5. Yurtimizdagi cho'llarni, daryolarni nomi: Cho'l qumli, guli yoki toshli bo'ladi. O'simliklar yaxshi rivojlana olmaydigan yuqoricho'l yerlar cho'l deb ataladi. Cho'llarga Qizilqum, Ustyurt, Mirzacho'l, Qonobcho'l, Qarshi cho'li kiradi.
6. O'zbekiston daryolari: Zarafashon, Qashqadaryo, Surxandaryo, Sherobod, Chirchiq, Ohangaron, Norin, Qoradaryo, Ko'suv, To'palang kabi daryolar.
7. O'zbekistonning tabiiy xaritasi: Tabiiy xaritada mamlakatimiz hududining g'arb qismini egallagan pasttekisliklar Turon pasttekisligi deb ataladi. Turon pasttekisligining sharq tomoni sariq rangda tasvirlangan. Tabiiy xaritada mamlakatimizning g'arbiy qismi asosan yashil rangda tasvirlangan. O'lkamiz tabiiy xaritasida katta daryo, kanal, ko'l va suv omborlari ha tasvirlangan. Xaritadagi shartli belgilar yordamida o'lkamiz hududidagi qo'riqxonalar nomlarini ularning joylashgan o'rnini ham bilib olish mumkin. Xaritadan o'lkamiz hududidagi asosiy foydali qazilma konlari qayerda joylashganligini ham aniqlash mumkin.
8. Yonuvchi foydali qazilmalar: Bunga 1) Ko'mir, 2) Neft, 3) Tabiiy gaz, 4) Torflar kiradi.

Tabiatni asrash masalasi tabiatshunoslik fanining bosh vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi, u bolalarda tabiiy boyliklarni asrash va ko'paytirishga intilishni tarbiyalashga yordam beradi. O'quvchilar tabiatni asrash yumushlarida qatnashadi. Tabiatshunoslik fanini o'rganishda kuzatish, ekskursiya, tajriba, amaliy ishlar yetakchi o'rin tutadi. Bolalarni kuzatish usullariga o'rgatish, ularning natijalarini kundalik dafraga belgilash, ular asosida xulosa va umumlashlar qilish davom ettiriladi. Ekskursiyalar o'tkazishga, tabiat ashyolari va voqealarni tabiiy holatda o'rganishga katta e'tibor beriladi.

Shuning uchun tabiatshunoslik darslarini o'tkazishga e'tibor berish zarur:

Tabiatshunoslkini 3-sinfdagi quyidagi:

- Tabiatga suv va havo;-Hayvonot olami;
- Foydali qazilmalar;-Sog'ligimizni saqlaylik;
- O'simliklar;-Ekologiya bo'limlaridagi mavzular.

4-sinfdagi quyidagi:

- Yer-Quyosh sistemasidagi sayyora;
- Yer yuzasi tabiatning xilma-xilligi;
- Vatanimiz boylab sayohat;

•O'zbekiston xaritasi yonida kabi bo'limlardagi mazularni ilg'or pedtexnologiyalar va tarmoqlash usullari asosida tashkil qilishni tavsiya etaman.

Bunda har bir darsda o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, ko'rgazmalar, tarqatmalar, boshqotirmalar, kichik testlardan, sahna ko'rinishlaridan foydalanishga harakat qilish kerak. Quyida ana shunday dars ishlanmasida O'zbekiston cho'llarining tabiati haqida gap boradi.

Mavzu: Cho'llar (4 sinf uchun)

Darsning maqsadi:

a) *ta'limiy*: Mavzu matni iqtisodiy bilimlar bilan bog'lab olib borish;

b) *tarbiyaviy*: tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish;

d) *rivojlantiruvchi*: egallagan bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish;

Darsning jihozi: 4-sinf tabiatshunoslik darsligi, Vatanimiz xaritasi, test topshiriqlari, tarqatmalar, televizor, komyuter mavzusiga oid rasmlar.

Darsning borishi:

O'qituvchi:-Bir haftaga yetti kun,

Etti kunni, yetti tun.

To'g'ri ayting bolalar,

Ayting, bu kun-qaysi kun?

Navbatchi o'quvchi qo'l ko'tarib javob beradi, bu kungi ob-havo o'quvchi tomonidan sinfga ilingan tabiat kalindariga belgilanadi.

O'qituvchi:

Qani, bolajonlarim,

Mehri qaynoq buloqlarim.

Bugun hamma sog'-omonmi?

Darsga hamma tayyormi?

O'quvchilar:

-Ustozlar, bizlar sog'lommiz,

Darsga to'liq tayyormiz.

O'qituvchi: kim aytadi, bolajonlar, tabiat o'zi nedir?

O'quvchi:

-Sizga aytsam, aziz ustoz,

Uyga toldim men bir oz.

Va shu xulosaga keldim,

Tabiat neligin bildim.

Atrofdagi barcha jonzod,

Quyosh, oy, yulduzlar, hayvonot,

O'simligi, gullar bari-Maftunkor tabiatga kiradi.

O'qituvchi:


-Darsimizning shiori?

O'quvchilar:

-Tabiat-o'z onamiz,

Uni doim sevamiz.

O'quvchilar doskadagi tabiat so'ziga tarmoqlash usulida ta'rif yozadi.



Uy vazifasini tekshirish.

O'qituvchi o'quvchilar bilan turli mavzularda savol-javob qiladi, uy vazifasini tarqatma materiallar asosida so'rab, tekshiradi va baholaydi.

Yangi mavzuning bayoni:

O'quvchilar uch guruhga bo'linadilar:

1-guruh-«Tog'lar», 2-guruh-«Qo'riqxonalar», 3-guruh-«Cho'llar» deb nomlanadi.

Baholash mezon: Har guruhning ball yig'ishi uchun savatchalarga guruhlar nomi yozilgan, rag'batlantiruvchi jetonlar orqali baholash qo'llaniladi: -Qizil rang-a'lo, yashil rang-yaxshi; sariq rang-qoniqarli.


Darsda oxirida guruh sardorlari to'plangan ballar haqida hisob beradilar. So'ng o'qituvchi guruhlariga «Klaster» tuzish topshirig'ini beradi.

1-guruh-«Tog'lar».




O'zbekiston hududidagi tog'larga ta'rif beradilar va Vatanimiz xaritasidan ko'rsatib o'tishadi.

2-guruh-«Qo'riqxonalar»



3-guruh: «Cho'llar».

Bu guruh o'quvchilari ham O'zbekiston hududida joylashgan cho'llar qaysi viloyatlarda joylashganligini aytib o'tadilar.



O'quvchi: -Shar shaklida, uning kichraygan ko'rinishi esa globus deb ataladi. Yerning quyosh atrofida bir marta to'liq aylib chiqishiga bir yil ketadi, goh quyoshga yaqinlashib, goh uzoqlashadi, shu vaqtda fasllar almashinadi.

O'qituvchi:

-Kim aytadi menga yana,
Nechta fasl bor ekan-a?

O'quvchi:

-Meni rosa-kutishadi,
Bayramlar ko'p deyishadi,
Oppoq qordan bolalar.
Rosa chang'i o'chishar,
Qani, kim aytar menga,
Men qaysi faslman-a?

Bolalar:

-Topdek sizni, bobojon,
Siz Qorbobo bo'lasiz.
Quvonchlarga to'ldirib,
Qish faslida kelasiz.

O'quvchi:

Bodom oppoq gullaydi,
Bulbul xandon sayradi.
Momolar bug'doy undirib,
Sumalaklar kavlaydi.

Bolalar:

-Bilamiz, Navro'z momo,
Siz bahorda kelasiz.

O'quvchi:

-Uch oy maza-oinaymiz,
Qo'shiq aytib, kuylaymiz.
Anhori hovuzlarda,
Qiyqirib cho'milamiz.

Bolalar:

-Bilaman siz yoz fasli,
Fasllar ichra asli.

O'qituvchi:

-Shunday qilib, biz gulzorlarda,
Barcha fasl mujassam.
Qish, yoz, bahor, repo afaslida.
Baxt bo'lsin sizga hamdam.

Manna, o'quvchilar, ko'rdingizmi?

Biz o'rganayotgan cho'llar zonasida ham iqlim faslga qarab almashinadi. Cho'llar bu eng quruk suvsiz, bepoyon yerlardir. Cho'llar boshqa tabiat zonalariga qaraganda yog'in-sochin ancha kam, yiliga atiga 110-120 mm boshqa bo'lsa, masalan, Qora dengizga 2500 mm bo'ladi. Cho'llarda faqat bahor va kuzda yomg'ir yog'adi, yozda esa yomg'ir yog'maydi. Cho'llardagi qurg'oqchilik o'simlik va hayvonlar uchun halokatdir. U yerlarning jazirama quruq 5-6 oy davom etadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash.

Topshiriqlar tugagach, guruhlar bir-biriga o'zi jamlangan ballarni aytadilar, eng yuqori ball to'plagan guruh g'olib deb topiladi; ular rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa:

-Darslardan «Cho'llar» mavzusini o'qib o'qib kelasiz va savollarga javob topasiz.

Bugungi darslarimizni men ushbu ajoyib she'riy satrlar javob topasiz.

Ilmi odob, mehringizdan,

Hurmatigiz yuksaldi.

Quvvat olib sehringizdan,

Darsimiz ham tugadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, o'quvchi-yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini royobga chiqarish, zamonaviy talablarga to'liq javob beradigan har tomonlama

rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish masalasi vatanimiz taraqqiyoti uchun eng ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi.

Zero, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik texnologiya asosidagi darslarni oldindan loyihalab, aniq maqsad sari yo'naltirib, mos innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etsa va kutilayotgan natijasiga erishsa, o'qituvchilarning tabiatshunoslik fani boyicha bilim, ko'nikma va malakalari yanada rivojlantirishga muhim omil bo'ladi.